

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqq boshlagan

№ 45 (66326)
2001 yil 9 noyabr, juma

Sotuvda erkin narxda

MAZZA QILIB O'QIYMAN



Bu yil 5-sinfda o'qiyapman. Sinf rahbarimiz «Tong yulduzi» gazetasida bosilgan maqola, she'rlardan o'qib beradilar. Qarasam, hammasi o'quvchilar ijodidan ekan. Biz ham yozsak bo'ladimi, deb so'radik.

- Albatta, - dedilar, - faqat yozishdan avval o'qish kerak, o'qisangiz fikr uyg'onadi.

Obuna haqida adamga aytgandim, bir yilga obuna uchun pul berdilar. Sinf doshlarim Sardor, Murod, Adham, Ziyoda, Nargiza, Otabek, Baxtiyor va boshqalar ham «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishdi.

Maqsadimiz gazetani mazza qilib o'qish va uning faol muxbirlari bo'lib, xabarlar yozib turish.

Durdona HASANOVA,
Yunusobod tumanidagi 274- maktabning
5- «V» sinf o'quvchisi.

BIZNING BOBO GAZETAMIZ


«Tong yulduzi», «Tong yulduzi»,
Bizning boba gazetamiz,
Aql ko'zi, ong yulduzi,
Bizning dono gazetamiz.

Sen do'st bo'lding ilm uqqan,
Ishchi-dehqon, boy-bekka ham.
Senda ilk bor she'ri chiqqan,
G'afur G'ulom, Oybekka ham!

Bir-bir o'qib sahifangni,
Sir ham aytdik qulog'ingga.
Sevib bordik ilm-fanni,
Aylantik chin o'trog'ingga.

Har yil senga yozilamiz,
O'zimizga do'st bilamiz.
So'zimizga ko'z qilamiz,
Ko'nglimizni yoz qilamiz.

«Tong yulduzi», «Tong yulduzi»,
Yorit kecha-kunduzimiz.
«Tong yulduzi», «Tong yulduzi»,
Bizning umr yulduzimiz.



MEHNATNING TAGI ROHAT

Sinfimiz o'quvchilari mehnat qilishdan qochishmaydi. Ayni yig'im-terim pallasi emasmi, dalada ish qizg'in. Shuning uchun ham biz o'quvchilar darsdan bo'shagan vaqtlarimizda ota-onamizga dala ishlarida yordamlashyapmiz.

Har kuni 50-60 kilogrammdan paxta teryapmiz. Bundan tashqari uch, to'rt yashik uzum ham uzyapmiz. Dam olayotgan vaqtimizda esa kitob, gazetani birgalikda o'qib, muhokama qilyapmiz.

Ustozimiz Oqila opa Berdiyeva bizlarga «mehnat qilgan kishi hech qachon hayotda qiynalmaydi», deydilar. Istardikki, tengdoshlarimiz ham mehnat qilishdan cho'chimasinlar. Mehnat qiyin, ammo uning rohati shirin ekanligini unutmasinlar.

Nasiba AHADOVA,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumanidagi
8- maktabning
10- «B» sinf o'quvchisi.



Inson yaralibdiki, o'zini anglashdan avval volidasini taniydi. Dunyoning jamiki go'zal, betakror ranglarini onadan kashf qiladi. Yaxshilikdan yasaydi barcha ishning zuvalasini. Go'dakkina barchada onasini ko'radi. Hammaga o'zini, so'ziyu ko'zini birdek tutadi. Ha, shundek bir fusunkor olamimiz bor barchamizning. Uning xotiralari hamisha qadrlil, diltortar. U mutlaqo daxlsiz, u faqat haqiqatni ko'radi. Palaklari toza bo'lib tug'iladi har bir murg'ak. Sababchisi ham poklanib ketar ekan uning sharofatidan. Shuning uchun ham bolalikni beg'uborlik davri deymiz. «Sizni yaxshi ko'raman», «Sizni sog'indim», «Sizni kutaman», «Sizning o'g'lingizman, qizingizman»,

«Katta bo'lsam...», degan oydin orzular, armonlarni to'ldiruvchi olov so'zlardan onalar qalbi iftixorga to'ladi.

Dunyoni tanishni ham Onadan boshlaymiz.

Tilimiz chiqishi ham onadan boshlanadi. Qalamimiz ham avval Ona so'zini yozadi. Ehtimolki, buyuklikning mash'al toshlari ham munisayu mushfiq volidaning o'zi, so'zi,

ma'rifati, suvratiyu siyrati bayonidan qo'yilar.

Kim onani anglash yo'lida kezza sarsari oqibatu - duo topar!!!

Bu fikrlarimiz jajjigina

bolakayning «Onaning portreti» suratiga qarab tug'ildi. Muallif Toshkent shahri miqyosida o'tkazilgan bolalar ijodi tanlovida faxrli uchinchi o'rinni egalladi.

Men bu yosh rassom bilan tanishdim. Suhbat qurdik. Muloqatimiz o'zbek tilida bo'ldi. U ona tilimizda gapirishga biroz qiynaldi. Lekin

tushdi. - Sizga dunyodagi eng bebaho boyluklarimni ko'rsataman, - deya bir dunyo oppoq qog'ozlarga bo'yoqlar, rangli qalamlarda chizilgan

beradilarmi? - Yo'q, o'zim chizib, keyin oyimga ko'rsataman.

- O'zbek tilini sizga kim o'rgatgan?

- Onam. Bog'chada o'zbek bolalardan o'rtoqlarim ko'p edi.

- Suratni bo'sh vaqtingizda chizasizmi yo'...

- Chizgim kelgan paytda chizaveraman. Men rasm chizsam onam juda ham quvonib ketadilar.

Rassomchilik sohasida mutaxassis emasman lekin bolakayning chizgan suratlardagi ranglar jilosi kishini o'ziga ohangrabodek tortar ekan. Aniq tasvir, ranglarning o'zaro uyg'unlashuvi, mavzuning aniqligi, bolaning qalamga, sehrli ranglar sirlarini bilishga jajji qo'llari butun vujudi tiyrak nigohi bilan intilishi iste'doddan darak beradi.

Mahliyo MIRSOATOVA.



ONADAN TANIDIM OLAMNI



«Ona»

hamma gaplarni tushundi. Bunday deyishimga sabab bor. Chunki Novikov Slava rusiyzabon. Hozirda Toshkent shahridagi 191- maktabning 1- «A» sinfida o'qiydi.

O'zi 1994 yildan 441-bolalar bog'chasiga borgan. Bu yerda mehribon murabbiylari qo'lida parvarish topdi. Yangi imkoniyatlar ochildi. Bir necha bor tuman, shahar miqyosidagi ko'riklarda 4, 5, 6, yoshlaridayoq faxrli o'rirlarni olib qaytdi. Mutaxassislarning nazariga

suratlarni menga Slavikning onasi Galina Mahmudovna tutqazdi. Haqiqatan ham rasmlar ajoyib edi. Qarab tursangiz u jonlanadigandek, qog'ozga qalam, bo'yoq bilan mehr, samimiyat, izlanish iste'dod to'kilgandek.

- Slavik, necha yoshingizdan boshlab rasm chizasiz?

- To'rt yoshimdan.

- Nimalarni chizishni yoqtirasiz?

- Hayvonlar, tabiat manzaralarini rangli, grafik qalamlarda chizishni yoqtiraman.

- Maktabda o'qish qiyin emasmi?

- Yo'q. Hozir darslarimiz uncha qiyin emas. Bizga bog'chada ko'p narsa o'rgatishgan.

- Onangiz ham chizishingizga, mavzu tanlashingizga yordam



GIYOHVANDLIK - XXI ASR VABOSI

Darhaqiqat, giyohvandlik XXI asr vabosidir. Bu tuzoqqa ilingan har bir insonning nurli kelajagini so'ndirmoqda. Ma'nani yetuk bo'lmagan, o'z huquqlarini bilmagan, boshqalarning izmiga yurib, mustaqil fikrlamagan, bugunini o'ylab ertasini o'ylamagan ba'zi bir irodasiz insonlar bir martagina giyohvand moddalarini shunchaki totib ko'rib, uning asirlariga aylanmoqdalar. Giyohvandlik nafaqat uni iste'mol qilganlarga, balki uning oilasi va kelajak avlodiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Buning orqasidan zaif, nogiron bolalar dunyoga keladi. Ularda nima gunoh? Aslini olganda gunohkor giyohvand ota yoki giyohvand ona sababchi emasmi?

Giyohvandlik moddasiga erishish yo'lida bu odamlar hamma narsadan voz kechishga tayyorlar, hattoki oilasi, ota-onasidan ham. Ular boshi berk ko'chaga kirganlaridan keyin ortga yo'l yo'q.

Sharqning buyuk tabibi Ibn Sino aytganidek: «Kasallikni davolagandan ko'ra, uning oldini olgan afzaldir». Shunday ekan, giyohvandlikni oldini olish uchun, ayniqsa yoshlar orasida tushuntirish ishlarini olib borish, tarbiyaviy soatlarni o'tkazish, ularni ilmu hunarga jalb etish muhim ahamiyatga ega. Zero, sog'lom avlod davlatning buyuk poydevori va kelajagidir!

Feruz ISMOILOVA,
Toshkent Davlat Texnika
Universiteti qoshidagi
Chilonzor akademik litseyining
3- kurs talabasi.


XATLAR TEGIRMONI



Non - tiriklik va hayot manbaidir. Turmush go'zalligi, yurt boyligi va obodonchiligi, xalqlar quvonchi ham

vazirlari bilan sayohatga chiqadi. U yo'l yoqasida bir burda nonni changga belanib yotganini ko'radi va o'z otidan tushib, iflos nonni olib tozalaydi. Bir

NON - HAYOT MANBAI



non bilandir. Shuning uchun ham dunyodagi barcha insonlarning nonga bo'lgan hurmati, e'tibori benihoya cheksizdir. Insonlar qadimdan nonga alohida munosabatda bo'lib, uni e'zozlab oltinga qiyoslab kelganlar, tejab-tergab foydalanarlar, uning sifatiga madhiyalar o'qiganlar. Yosh bolalarni kichikligidan boshlab nonni e'zozlashga odatlantirishning tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Har bir ota-ona, bog'cha tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari bu narsaga alohida e'tibor berishsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Kattalar non haqida bolalarga ertaklardan, hadislardan misollar keltirib tursalar, bolalar ongiga mustahkam joylashgan bo'ladi.

Tarixda yozilishicha, shunday deyilgan: Kunlardan bir kuni shoh Mirzo Ulug'bek

necha bor o'pib, qo'yniga soladi. Buni ko'rib turgan

vazirlardan biri:

- Shohim, biz turganda siz otdan tushib nima qilar edingiz, - deydi. Shoh ularga qarab shunday deydi:

- Bu mening nasibam, men ko'rdim, - deb javob berdi. Shoirlar nonni e'zozlab o'z asarlarida fikr mulohazalarini bayon qiladilar. Anvar Obidjonning «Bug'doyjon», Yayra Sa'dullayevaning «Kulchaoy», P.Mo'minning «Bug'doy bobo va uning nabiralari», Q.Muhammadiyning «Barkash non», T.J.Yo'ldoshning «Non haqida o'ylasam» va boshqa asarlar unga misol bo'la oladi. Non aziz, uni tejab e'zozlaylik.

Dilnoza HAMDAMOVA,
Samarqand viloyati, Urgut shahridagi
121- maktabning
6- «V» sinf o'quvchisi.

MUNIS ONAGINAM

Bizga hayot in'om etgan, baxtimiz deb jon berib, jafu chekkan, dunyodagi hamma narsadan farzandini ustun qo'ygan, eng mo'tabar zot onadir. Bas, shunday ekan, har bir farzand ona hurmatini joyiga qo'yishi, qo'lidan kelgancha og'irini yengil qilishi, dilini ranjitmasligi farzand uchun ham farz, ham qarzdur. Ona farzandini so'nggi nafasigacha sevadi. Onalar farzandining boshidagi maqtoqli tojlaridir. Onalarning duolari bilan farzandlar o'sib ulg'ayib o'z murod-maqсадlariga yetadilar. Farzandiga ona jonini ham fido qilishga tayyordir. Ularning xizmatlari juda ham beqiyosdir. Validalarimizning bunday xizmatlarini ikki dunyoda ham ado qilib bo'lmaydi. Lekin farzand ulg'ayib validai mehribonining hurmatini joyiga qo'ysa ona uchun shu ham kifoyadir.

Fotima Tosheva,
Qashqadaryo viloyati,
Kitob tumanidagi
Ahad Xo'jayev nomli
maktabning
5- «V» sinf o'quvchisi.



Ayol. Bu dunyoda ayoldan ham buyuk muqaddas inson topilmasa kerak. Ayollar borki, xonadonimiz doimo to'kin-sochin, biz farzandlar baxtli, saodatli. Bo'sh bo'lgan chog'larimda to'yib-to'yib atrofga nazar solaman. Ayollar -

sevimli muallima, hamshira, tadbirkor. Ishbilarmon hamda ajoyib hunarlar sohibasi. Bizning qishlog'imizda ham ishning ko'zini biladigan ayollar ko'pchilikni tashkil etadi. Shulardan biri Gulshoda opa Ashurova. Biz qishloq qizlarining u kishiga judayam havasimiz keladi. Sidqidildan ishga kirishib, insonning didiga mos, ixcham, bejirim ko'ylaklarni tikadigan mohir tikuvchiga kim ham havas qilmaydi, deysiz? Hozirgi kunda u kishining «Farangis» nomli tikish-bichish korxonalarini 30 ga yaqin

bo'lajak tikuvchi-qizlar bilan gavjum. Gulshoda opa ularga chin yurakdan saboq berib, tikuvchilik sirlaridan voqif etmoqdalar.

GULSHODA OPAGA O'XSHASAM DEYMAN

Qishlog'imiz xalqi ham u kishidan juda mamnun. Chunki hozirgi sharoitda ba'zi oilalarda kamchiliklar borligi tabiiy. Shu bois, qizlarning oliy ma'lumotli bo'lishlari ham qiyin. Har zamonda Gulshoda opaning oldilariga borib, u kishining qilajak ishlarini kuzatib o'tiraman. Nasib bo'lsa, ta'tillarda u kishidan tikuvchilikning barcha sirlarini o'rganishni niyat qildim. Qiz bola qanchalik qo'lini hunarlar bilan bezasa, uning ertangi kuni farovon, hayoti boldek shirin, baxtli kechadi. Hunar egallash bilan birgalikda kasb sohibasi

bo'lish ham biz, qizlarning asosiy vazifamiz hamda burchimizdir.

Mening orzuim hozir, ya'ni yozgi ta'tilda tikuvchilik

hunarini puxta va chuqur egallash, pazandachilikni ham o'rganish.

Tikuvchilikni yaxshi o'rgansam-da, chiroyli, bejirim ko'ylaklarni tikib, menga ham hammaning havasi kelsa edi-ya. Shu bilan birgalikda kelajak avlodga bilim berib, sevimli muallima bo'lish niyatidaman. Agarda orzularimga erishsam edi, kelajak avlodni Gulshoda opadek hunarli hamda ajoyib kasb egalari bo'lishga undardim.

Dilora NE'MATOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani 8- umumiy o'rta ta'lim maktabning
10- sinf o'quvchisi.

Yaqinda diyorumizning mo'jazgina so'lim qishloqlaridan biri, Tuyabo'g'iz qo'rg'onidagi Toshkent suv ombori yaqinida joylashgan oromgohda ajoyib bir konferensiya bo'lib o'tdi. Bu konferensiyada samoviy sayyoralar - «Mars» va «Venera» uchrashdilar.

Bizga ma'lumki, Mars - jasur, haqqoniy, mag'rur va qattiqqo'l yigit timsolida gavdalanadi. Venera esa sevgi timsoli bo'lib, mehribon, aqli qiz sifatida

"MARS" VA "VENERA" UCHRASHDILAR

gavdalanadi. Bu ikki sayyoraning uchrashuvi o'smirlar orasidagi dolzarb mavzu - «sevgi», ya'ni sevish va sevilish mavzusiga kelib taqaladi. Konferensiyada ishtirok etgan tengdoshlarim, talabalar, o'qituvchilar va amerikalik mehmonlar Lori, Kif, Matfey, Beteplar bilan tanishdim. Ayniqsa, men bilan do'stlashgan Feruza opam, Syuzilarni juda yoqtirib qoldim. Koreyalik Gloviya ismli qizning sof o'zbek tilida gapirishi meni hayron qoldirdi. Biz u yerda bir kun bo'ldik. Turli o'yinlar o'ynab, miriqib hordiq chiqardik. Sevgi mavzusidagi barcha savollarimizga javob oldik:

Inson yolg'izlikda qolganida o'zini keraksizdek his qiladi. O'zgalar kabi sevish-sevilish istagi tug'iladi. Ko'p hollarda samimiy do'stlikni sevgi bilan adashtirib qo'yamiz. Aziz dugonalarim, o'z his tuyg'ularingizni, bir-birimizga bo'lgan samimiy munosabatlarimizni «sevgi» darajasiga ko'tarmaylik, uning qonunlarini buzmaylik. Yolg'on so'zlarga ishonib, «aldanib qolmaylik. Nodirabegimdek oqila tuyg'ularni jilovlay oladigan, Uvaysiydek sadoqatli, Zebunisodek kamtar, kamsuqum, To'marisdek irodali, sabrli bo'laylik. Toki qalbimiz eshigiga yolg'on so'zlar kalit bo'lmasin.

Nodira ERGASHEVA,
Mirobod tumanidagi 6- biznes maktabining
1- kurs talabasi.

ENG ULUG' ZOT

Yurtimizga zavqu shavq
Bag'ishlagan inson kim?
Hurlikni qalbimizga
Naqshlagan Inson kim?

Dunyolarga yoygan kim
O'zbekiston nomini?
Kim ko'targan har farzand
Qadriniyu shonini?


Deb mendan so'rasalar
Mag'rur tutgancha boshim!
Der edim ta'zim ila:
Bu zot - ulug' Yurtboshim!...



O'QITUVCHIMGA

O'qituvchim - mehribonim,
Siz mening jonu dilim.
Siz tufayli bu hayotdan,
Oldim odobu ta'lim.

Ota-onam kabi aziz,
Boldan shirin so'zingiz.
Siz o'stirgan Orzigulman,
Chin bog'bonim o'zingiz...



MAVJLANAYOTGAN JILG'A

Jilg'ani ko'rganmisiz? U katta-kichik toshlar, o't-o'lanlar, maysalar oralab, jildirab-mildirab oqadi. Oqishlarida g'oyatda mayinlik, qjib bir nafasot borki, u yo'l bosgani sayin ortida turfa gullar bosh chayqab qolaveradi. Ana shu mo'jizakor, hayratdan iborat mavjini jilg'a deyishadi.

Men Orzigul Hamroyevaning she'rlarini o'qiganimda ko'z oldimda o'sha jilg'a namoyon bo'ldi. Samimiy, inja oqish, inja mavjlar... Endigina 14 bahorni qarshilayotgan jaji qalb ohanglari... ravon va matunkor. Shunday yoshda daftar-

daftar mashqlar. Biri tugal, biri notugal, biri avjli, biri tahrirtalab. Mayli-da, jilg'a deganingiz hamisha tiniq oqmaydi-ku! Eng muhimi, Orzigulning she'riyat deb atalmish chamanzorga zo'r havas va dadil, toza ovozda kirib kelayotganida, har bir bitigida o'zicha «nimadir» aytayotganida. Bu aniq va tiniq yo'ldan aslo toymasligini istayman uning.

Niyatlaring amalga oshsin, senga oq yo'l bo'lsin, Orzigul!

Toshpo'lat AHMAD,
shoir, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

BUXORO

Qalbmning quvonchi o'zingsan, shahrim,
Senda ajdodlarim xoki poyi bor.
Bunyodkor, ijodkor o'g'il qizingga.
Aziz avliyolar ruhi madadkor.

Ne-ne beshiksan, shonsan,
Seni jondan sevgan tark etmas bag'ring.
Islom dini kabi mangu boqiyisan,
Quyoshning nuriga tutashdir umring...

SOG'LOM FARZAND

Sog'lom farzand mustaqillik
Posboni erur,
O'zbekiston degan yurtning
Qo'rg'oni erur.

Farzandlar-ku Ona yurtga
Juda mehribon,
Ona-yurt ham farzandlarga
Dilkash, jonajon.

Farzandlari sog'lom Vatan,
Mangu bor bo'lgay!
Bunda orzu, har bir tilak
Yashnab, gullagay...



Yurtimizda yana bir munavvar tong otdi. Sofiya opa kechasi alla mahalgacha o'quvchilarining insholarini tekshirib, boshi yostiqaq tegar-tegmas yana barvaqt uyg'ondi. Uy yumushlarini saranjomlab, qardron maktabi, o'z farzandlaridek aziz va ardoqli bo'lib qolgan o'quvchilari huzuriga oshiqdi...

Dastlab, Xolchayondagi 6-maktabda, keyinchalik 41-maktabda, hozirgi kunda esa Denov tumanidagi 51-maktabda ona tili va adabiyot fanidan saboq berib kelayotgan Sofiya opaning har bir tongi mana 25 yildirki, shunday boshlanadi. O'z kasbini jondan sevgani bois, qo'shimcha maosh olmasada, qo'shimcha darslar, to'garak mashg'ulotlari o'tib, umidli shogirdlarini tuman, viloyat, respublika miqyosidagi turli musobaqalarga tayyorlaydilar. Uy-ro'zg'or, bolalar tashvishidan ortib, o'zlari boshchilik qiladigan «Adabiy o'lkashunoslik» to'garagi a'zolarini ota-onalari bilan birgalikda Termiz

shahridagi Al hakim At-Termiziy ziyoratgohiga, Sulton Saodat maqbarasiga, Sherobod tumanidagi Imom-Termiziy ziyoratgohiga olib borishga ham fursat topdilar. Bu kabi ziyoratlardan ko'zlagan maqsadlari - milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimizni nafaqat bolalar, balki keng jamoatchilik, omma ongiga ham yanada chuqurroq

singdirishdan iborat. To'garak a'zolarining sayohatlardan olgan taassurotlari, suratlari jamlangan albomlari ham talaygina bo'lib qolibdi. Ko'pchilik ota-onalarning farzandlari aynan Sofiya opaning qo'lida tahsil olishi istagida ekanliklari ham shundan...

Opaning umidli shogirdlari muntazam ravishda o'quvchilarning respublika iqtidorli yoshlari anjumanlarida qatnashib kelishadi. 1997 yilda Nargiza Begimqulova «O'zbekiston Vatanim manim»

qo'shiqlar tanlovida «O'zbekim» nomli she'ri bilan anjumanda ishtirok etib, 3-o'rin sohibi bo'lgan bo'lsa, 1999 yilda yana bir shogirdi Fazilat Tog'ayeva «Erk qo'shig'in aytib keldi Alpomish,

Bugun yurtga qaytib keldi Alpomish» mavzusi bilan «Alpomish» dostonining 1000

yilligiga bag'ishlangan respublika iqtidorli yoshlarining 8-slyotida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Ona yurtni madh etuvchi xush kalomlari, she'rlari bilan ko'plarni lol etib, faxrli o'rinni olganida

Sofiya opaning ajoyib bir xislati bor: shogirdlarining muvaffaqiyatini ko'rmaguncha qalbida bir besaranjomlik, betoqatlik tuyaveradi. O'ylamay, tashvish chekmay desa ham bo'lmaydi. Chunki u tabiatan shunday yaratilgan-da...

Yulduz Xusainova Sofiya opaning kenja qizi, ham shogirdi. U 5-sinfda tahsil oladi.

Hozirdanoq tuman gazetasida maqola

va xabarlar bilan qatnashib kelayotgan qizaloq ulg'aygach, xuddi onasidek mohir murabbiy bo'lishni orzulaydi. Bu yil respublika iqtidorli bolalar anjumanida qatnashish Yulduzga ham nasib etdi.

«Men izga qaytaman, o'zga qaytaman,

Yo Imom-Termiziy sizga qaytaman» mavzusi bilan «tarix-o'lkashunoslik» sho'basida qatnashdi.

Uning tengdoshi Sabohat To'rayeva «Al hakim At-Termiziy hayoti va ijodi» mavzusi bilan «adabiyot va o'lkashunoslik» sho'basidagi muvaffaqiyatli ishtiroki bilan Sofiya opani juda quvontirdi.

Respublika miqyosidagi anjumanlarga hakamlik qiladigan folklorshunos olim Malik Murodov, O'zbekiston Xalq rassomi Ro'zi Choriyevlar ham bilimli, ilmi shogirdlarni tarbiyalab kelayotgan Sofiya opani behad hurmat qilishadi. «O'z kasbining haqiqiy fidoyisi bu ayol» deyishadi. Opaga «Surxondaryo madonnasi» deya ta'rif berishgani ham bejiz emas...


Sofiya opaning ko'p yillik samarali mehnatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. Xalq ta'limi vazirligining bir necha Faxriy yorliqlari bilan mukofotlanganlar. 1999- «Ayollar yili»da olgan «Mehnat shuhrati» ordenini faxr va iftixor bilan ko'ksilariga taqib yuradilar.

Hademay tabarruk 50 yoshini qarshilash arafasida turgan Sofiya opa Shomurodovani biz ham samimiy qutlab, ko'plab umidli shogirdlar yetishtirishlarida sabr-toqatu kuch-quvvat tilab qolamiz.

Feruza
JALILOVA.

SURXONDARYO "MADONNASI"





«Jim yot, hammani uyg'otib yuborasan. Bo'lmasa ana Qandarg'a kelib seni olib ketadi. Ko'ning chunguli (Eng chuqur joyi)ga olib borib bog'lab qo'yadi». Vahimani ohangda aytilgan bu gapdan jimib qolaman va Qandarg'a deganingiz kim bo'ldi o'zi?, deb sekin so'rayman onamdan. «Ey, bolam, bizlar ham bola bo'lgan paytlarimizda momimiz shunday deb qo'rqitar edi. Qandarg'aning kimligini kim biladi deysan, o'g'lim».

Qandarg'a aslida «Avesto»dagi ko'pxudolik davri bilan bog'liq suvda yashaydigan Gandarva deb ataluvchi maxluqning o'ziga xos talaffuz ifodasi. Eramizdan oldingi XIII-VIII asrlarda qadimgi xorazmliklar erta bahorda suv serob bo'lishini, lekin toshqinlik yubormaslikni iltijo qilib, Gandarva asosan bo'yi yetgan, eng chiroyli qizlarni so'yib qurbonlik qilishgan.

Hindlarda ham suv xudosi nomi Gandarva bo'lib, Yunonlarda Kentavr, slavyan xalqlarida Kitovras deb yuritilgan.

Gandarva (Qandarg'a) bilan bog'liq afsonalar «Avesto» ta'limotida muhim o'rin tutadi. Kishilarning kelgusi taqdirini aynan Gandarva bilan bog'lab tushuntiriladigan afsonalar mavjud. Ana shunday afsonalardan biri Vispatauvari afsonasidir.

ASVAT ERETNING ONASI

Vispatauvari - «hammadan qudratli», insoniyatni yolg'onchi Axrimon izmidan qutqazuvchi qahramon Asvat Eret onasining ismidan biridir.

Aytishlaricha, Zardushtning xudolarga qarshi tashviqoti Arian Vij (Arianem Voychox)

aholisini ko'pxudolikdan yuz o'g'irishga olib keldi. Franxrasyan (Afrosiyob) Kavi Xoosrav tomonidan o'ldirilganidan keyin Franxrasyaning

zurriyodi Arjasp Axrimon (yovuzlikning bosh tangrisi) sharafiga yuz tuyani, ming

Drug'vandga murojaat etibdi. Drug'vand (Druj) Axrimonga Arjaspning so'zlarini yetkazibdi.

Va nihoyat Drug'vand Axrimon xohish-irodasini Arjaspga ma'lum qilibdi. Arjasp eng yaxshi lashkarboshisi pahlavon Bratar Vaxshni Zardushtni bir yoqli qilish uchun yuboribdi.

Zardusht Baxdi shahrida Kavi Gushtasp saroyida o'zi targ'ib etib qabul qildirgan din mazdapa rastlik (otashparastlik)ning bosh kohini vazifasini bajarib yurgan ekan. Bir kuni o'zi tarixini chizib bergan Markaziy Otashkada (ibodatxona)ning ochilish marosimida, eng mas'uliyatli, quyosh nuridan muqaddas olov olish jarayonida Arjasp tomonidan yuborilgan Bratar Vaxsh Zardushtni

zanjirband qilishni va ularni toki buyuk intiqom davrigacha (oxir zamongacha) tirik saqlab turishni buyuribdi.

«Avesto»da aytilishicha, Axrimon zamonining oxiri yaqinlashganda Zardusht oila a'zolarini, buyuk qahramon Asvat Eret tomonidan ozod etilishi yuz beradi. Asvat Eretning onasi cho'pon qizi Vispatauvari voyaga yetgan qiz paytida («Avesto») ta'limotida voyaga yetgan vaqtini 15 yosh deb belgilangan) Kansava qo'lida qip-yalang'och holda cho'milar ekan. Ko'ning eng chuqur joyi (chungul) ustidan suzib o'tayotganida Zardusht o'g'illaridan biri suvning tubidan osmonga qarabdi. Shunda qizning qip-yalang'och go'zal gavdasiga ko'zi tushibdi. Erlik urug'ini Bakra balig'i og'zida avaylab olib borib,

hududlaridan izlab, hozirgi Eron va Afg'oniston chegaralarida joylashgan «Hamun» ko'li bo'lsa kerak deb taxmin qilganlar.

«Avesto» kitobida Kansava ko'liga quyiladigan daryoning nomi Qanha deb atalishi keltirilgan.

«Shohnoma»da Siyovush o'zining qahramonona ishlarini Qanha (Kangdiz, Kangi Siyovaxsh)da qilgan deyilsa, Beruniy Xorazmda qilgan, deydi. Xorazmning janubi-g'arbidagi, Amudaryoning qadimiy Sariqamish deltasining janub tomonidan eng chetki irmog'i hozirgacha Qang'adaryo deb, bu irmoqning yonidagi tepalik esa Qang'iqir deb ataladi. Qanha Xorazmga nisbatan birmuncha kengroq ma'noni anglatishi mumkin. Bu faktik materiallarga asoslanib Qandarg'a devining to Asvet Eret tomonidan o'ldirilguncha bo'lgan maskani Kansava ko'liga qo'yiladigan daryo Amudaryo irmoqlaridan biri, Qanxa hozirgi Xonqa tumani hududlaridan suv olgan, keyinchalik bu irmoq soqasi daryoning quyi qismlariga siljib borgan, hozirda esa Xorazm viloyati Yangibozor tumani hududlardan suv olgan daryoliqning eng qadimgi nomi. (Bundan kelib chiqib, Xonqa so'zining etimologiyasi Qanxaga borib taqalishi ehtimoldan xoli emas).

Shuningdek, Qanxa daryoi Ko'hna Urganch tomonga oqqan holda yana ikki irmoqqa bo'linib ketgan. Bittasi Sariqamish havzasiga qo'yilgan. Ikkinchisi Kaspiy dengizi tomon o'z oqimini davom ettirgan. Hozirda birinchi irmoqning qadimgi o'zani hali ham Qanxadaryo o'zani deb ataladi. Agar bu gaplarga suyanib xulosa chiqarmoqchi bo'lsak, unda, Zardusht oilasini devlar tomonidan tutqunlikda saqlayotgan ko'l (ya'ni, hozirgi Sariqamish ko'li)ning qadimgi nomi Kansava emasmikan, degan fikr tug'iladi.

Muqaddas «Avesto»ning eng qadimgi Zardushtgacha bo'lgan Yashtlar qismi ko'pxudolikni o'zida aks ettiradi. Aynan ana shu ko'pxudolik davrini aks ettirgan qismlari quyi Amudaryo hududlarida shakllangan. U davrlarda tabiiy va ijtimoiy hayotning alohida sohalarini boshqarib turuvchi tangrilar mavjud deb hisoblangan.

Bu haqda keyinroq to'xtalamiz.


Sahifani Sherzod ABDUAZIMOV tayyorladi.

"AVESTO" FAXRI

pichoqlab o'ldiradi.

Arjasp bu bilangina kifoyalanmasdan yana yuz tuya,

Vispatauvarini urug'lantiribdi. Bundan tug'ilgan bola oxir zamon qahramonlaridan Asvat



Otashparastlikning muqaddas kitobi «Avesto» va uning mualliflaridan bo'lmish Zardushtning hayoti va dahosi mana bir necha ming yillardan buyon insoniyat aqlini hayratga solib kelmoqda. Bu muqaddas bitiklarda ilgari surilgan g'oyalar insoniyat ma'naviy taraqqiyotining takomil bosqichlaridan biriga aylandi. «Avesto» yaratilgan yurtda kitob chop etilgan. Demak, sanoat ham rivojlangan. Bu rivojlanish 2700 yillik to'yi tantana qilingan. «Avesto»ning Vatani - ona O'zbekiston tarixi buyuk qudrati, salohiyati bilan mashhur jahondir.

yilqini va mirriad (o'n ming va undan ortiq cheksiz miqdorni ifodalovchi son) qo'y-qo'zini qurbonlik qilibdi. Keyin u Zardushtni jazolash uchun yordam so'rab, Axrimon irodasini odamlar orasida targ'ib qiluvchi

ming yilqi va mirriad qo'y-qo'zini qurbonlik qilib, shunday deb iltijo qilibdi. «Zardusht o'ldi, lekin uning dini tirik, Zardusht avlodlariga shunday jazo yuboringki, toki odamlar to chinvo'tgacha bu dahshat oldida dag'-dag' titrab, Axrimon dahshati oldida ojiz qolsinlar». Axrimon bunday iltijolarni eshitib, suv mahluqi Gandarvaga Zardushtning o'g'illari va qizlarini, xotini,

nabirasi va hatto kuyovini ham Qanha daryosi quyiladigan Kansava ko'lining eng chuqur joyiga olib borib,

Eret dunyoga kelibdi. U kuch-qudratga yetgan paytida uzun dastali sanchqi bilan Gandarvani o'ldirib, o'z otasi va uning bandi bo'lgan aka-uka, opa-singillari, buvisini ozod qilar ekan.

QANHA- XONQA EMASMI?

«Qandarg'a» talaffuzi o'zgargan holda bizgacha yetib kelgan qadimgi xorazmliklarning eng ko'hna asotirlari qahramonlaridan suv mahluqi Gandarvaning o'zidir.

Eng qizig'i, mutaxassislar bu ko'ning qayerda joylashganini aniq ayta olmayaptilar. XVIII-XIX asr Ovrupa tadqiqotchilari Eron, Afg'oniston



Bir shingil bog'dan, bir shingil tog'dan

YANGI ASR TENNISI

Xalqaro tennis federatsiyasi, tennis o'yinini takomillashtirish va uni yangilash borasida fikr yuritmoqda. Tennis tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, shunga amin bo'lamizki, tennis doimiy ravishda rivojlanib va yangi ko'rinishlarga ega bo'lib borgan.

Tennis XIII-XIV asrlarda o'ynalib kelingan bo'lsada, faqatgina XVI asrga kelib raketkalar qo'llanila boshlangan. XIX-asr oxirlarida tennis o'yini hozirgi zamonaviy tennisga yaqin ko'rinishda shakllangan. Tennis qoidalari 1974 yili U. Uingfild tomonidan ishlab chiqilgan. Shundan buyon tennis o'yini va uning qoidalari yangi-



yangi qoida va o'zgartirishlarga ega bo'lib bormoqda.

Xalqaro tennis federatsiyasi zamonaviy tennis o'yiniga o'zgartirish kiritmoqchi. XTF fikricha zamonaviy tennis juda tez bo'lganligi bois, uni sekinlashtirish maqsadida bosh qotirmoqda. Tennis o'yinini sekinlashtirishning birdan-bir yo'li deb ular tennis to'pini yirikroq ko'rinishga olib chiqmoqchi, chunki urilgan to'plar ko'z ilg'amas tezlikda o'ynaladi va ko'p bora o'yin davomida o'yinchilar tomonidan noroziliklarga sabab bo'lmoqda. Hozircha tennis to'pini yiriklashtirish XTF tomonidan ko'rib chiqilmoqda. Ajab emas XXI asrda tennis o'yinining yangicha ko'rinishi vujudga kelsa.




SABZI YENG

Sog'liq, quvvatliqlik garovi sifatida shifokorlar ho'l mevalarni iste'mol qilishni tavsiya etadi, hatto buni isboti sifatida tabiiy jarayonda ko'rishimiz mumkin. Mevalarning pishiqchilik davrida odamlar o'zlarini tetik his qilishadi va o'zlarining sog'lig'idan arz qilishmaydi. Tibbiyot vakillari hatto yoshi kattalar mevalar mavzusida kichkintoylarga mevalardan ko'proq iste'mol qilishlarini maslahat beradi.

Sabzavot mahsulotlari ham mevalar singari vitamininga boy bo'lganligi bois ularni ho'lligida iste'mol qilish sog'liq garovi hisoblanadi. Sabzavot mahsulotlari ho'lligida vitamininga boy bo'lib, ular inson sog'lig'i uchun foydaliligi to'g'risida tibbiyot olamining vakillaridan



Ibn Sino ham o'z asarlarida to'xtalib o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Sabzavot mahsulotlarini ho'lligida iste'mol qilish foydali deyiladi, ammo buni sabziga dahli yo'q deb amerikalik Lyuk Xovard shunday hisoblaydi, aga sabzining qarishni sekinlashtiruvchi xususiyati bo'lmaganda uni ho'lligida iste'mol qilishdan naf bo'lmas edi, deydi. Xovard sabzi ho'lligidan ko'ra qaynatilganida foydaliroq deb hisoblaydi. Xovard sabzini pishganida uning tarkibidagi vitaminlar ko'payishini hatto 35 foizga yetganligini aniqlagan, chunki sabzi tarkibidagi vitaminli katakchalar pishganida kengayishiga va sabzining vitaminli xususiyati ortishiga yordam beradi. Biroq, sabzi ho'lligida ham pishganida ham foydali ekanligini unutmang.



XOH ISHONING XOH ISHONMANG!

Kelgindilar, bu so'zning o'zi g'ayritabiiy, hatto fantastik so'zni anglatadi.

Hayot yerdan o'zga joyda ham mavjudmi? Bor bo'lsada, biz ularni bilamizmi? Bu so'zlarga izoh berishga harakat qilganlarni xayolparast deb atashga odatlanib qolingan oddiy holdir. Aksariyat astronomlar yerda milliardlab tirik organizmlar,

uchib ketishadi.

Kelasi safargi aloqa o'zgacha tarzda bo'ladi, muloqotda AQSH va kelgindilar o'rtasida hamkorlik qilishlikka erishiladi. Hamkorlikda kelgindilar va yerli

O'ZGA SAYYORALIKLAR TASHRIFI - HAQIQATMI?

hayvonlar, odamlardan tashqari koinotning noma'lum qaysidir burchagida tirik mavjudotlar borligini isbotlashga harakat qiladilar.

1953 yil astronomlar tomonidan kuzatilishicha uchar ob'yektlar yerga yaqinlashgan. Yerdan 180,800 um. yuqorida 13 marotaba paydo bo'lganligini va kelgindilarning o'rtasida bo'lib o'tgan radioaloqa to'lqinlarini tutib qolishga muvaffaq bo'lingan. AQSH kuzatuvchi tadqiqotchilarning 1954 yil Xolomon harbiy bazada «Platon» (Kelgindilar bilan aloqa o'rnatish) havo bazasi ishlab chiqildi. Bu baza orqali ilk kelgindilar bilan aloqa o'tildi va kelgindilar bilan aloqa o'rnatish ishlari avj olib ketdi.

Shu yili AQSH harbiy havo kuchlari bazasiga beshta o'zga sayyora vakillarining havo kemalari uchib keldi va ular bilan aloqa o'rnatildi. O'zga sayyora vakillari yerga Betelgeyz qizil yulduz

turkumi Oriondan kelganliklarini va kelishi sabablari ularning sayyorolari halokat yoqasida turganligi ma'lum bo'ladi. Kelgindilar juda baland bo'yli, burni uzun va ular kul rang ko'rinishda bo'lgan. Qisqa muloqotdan so'ng ular

o'rganib chiqish uchun almashiladi. Yerda qolgan birinchi o'zga sayyoralik Kril nomli kelgindi qoladi.

AQSH maxfiy xizmat a'zosi Uilyam Kuper bayonotiga ko'ra o'zga sayyoraliklar yerga kelishining asosiy sababi kelgindilar o'zlariga yashash uchun maskan topish maqsadida bizning yer sayyoramizga kelishgan. Ular biz bilan qilgan hamkorliklarining mazmunida ham faqat yashab qolishdir. Kelgindilarning yer sayyorasida yashab qolishi sayyoramiz uchun halokatli bo'lishi mumkin. O'zga sayyoraliklar yerdagi hayvonlardan va odamlardan temir moddasini olish manbai sifatida foydalanishlarini va yerga 9 xil o'zga sayyoraliklar kelishi aniqlanganligini 1989 yil ma'lum qilgan edi.

Bu ma'lumotlar bilan tanishish chog'ida, bir fantastik adibning qoyilmaqom yozgan qissasi deb o'yladim, lekin bu ma'lumotlar haqiqatga yaqindir, chunki kelgindilar bilan bo'lgan aloqalarning barchasi kintasmalarga yozib olingan. Hatto 1988 yil oktyabrda

AQSH televidiniyesi orqali Maykl Semamen yaratgan «Yashirilgan o'zga sayyora» filmida ham bu kino tasmalardan foydalanilgan. Kelgindilar tushirilgan kintasmalar hozirda AQSH kino arxivida saqlanmoqda.




YASHASIN KANAREYKALAR

11 sentyabr kuni AQSH davlatida terrorchilar tomonidan sodir etilgan qo'poruvchiliklardan so'ng AQSH davlati hukumati o'z xalqi havfsizligini ta'minlash maqsadida xalqni ogohlikka chaqirish tadbirlarini o'tkazmoqda.

Kutilmaganda terrorchilar tomonidan kimyoviy, zaharli hujumlardan ogoh bo'lish maqsadida Nyu-York aholisi prativogazlar va zarur kerakli narsalarni xarid qilishmoqda.

Hozirda Nyu-York aholisi zoomagaznlardan kanareyka qushlarini sotib olmoqdalar, sababi, bu mitti qushlar mutaxassislarning aytishicha, havodagi oz miqdordagi zaharli havodan ham halok bo'lishi mumkin. Hatto zaharli havoni bir necha kilometrdan ham sezishadi va sayramay o'zini g'alati tutishi bilan kelayotgan xavfni bildiradi. Shuning uchun Nyu-York aholisi kanareyka qushchalarini xarid qilishmoqda. Xaridorlar aytishicha endi terrorchilar o'z manfur, g'alamisliklarini qilishdan oldin mitti qushchalar bilan orani ochiq qilib olishlari kerak. Bundan keyin ularning yomon niyatlari ro'yobga chiqmaydi va chiqmaydi ham.





Taniqli fransuz yozuvchisi V.Gyugo: «Kimki maktab ochsa, u yuzlab qamoqxonalarni berkitgan bo'ladi», degan edi. Ha, dunyoni jaholatdan faqat ma'rifat chirog'i, aqlu salohiyat mash'aligina qutqarib qoladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Muzaffarxon Saidumarov Marg'ilon shahrida iqtidorli bolalar

maktabi ochish tashabbusi bilan chiqdi. Bu xayrli tashabbusga T.Aliyev, A.Abdullayev, A.Abdurahimov kabi shaharning tajribali muallimlari ham qo'shilishdi. Fidoyi ustozlarning tinimsiz harakatlari, yelib-yugurishlari o'z samarasini berdi. 1991 yil 3 noyabrda iqtidorli bolalar maktabiga ilk o'quvchilar qabul qilindi.

Dastlab bir necha xona va sinflardangina tashkil topgan ilm maskanida sekin-asta ko'zga ko'rinarli



o'zgarishlar amalga oshirildi. 1994 yili iqtidorli bolalar maktabiga gimnaziya maqomi berildi.

Gimnaziya o'quvchilari tuman, viloyat, respublikada o'tkaziladigan har bir ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok eta boshladilar. Prezident asarlari asosida tayyorlangan O'zbekiston televideniyesidan beriladigan «Aks sado» ko'rsatuvining bir necha sonida

mukofotining sovrindori bo'ldi.

Mustaqil yurtimning

«Istiqboli»san,

Kelajak naslimiz baxt-iqbolisan.

Yoshliksan, g'urursan, istiqbolisan,

Tomirda jo'sh urgan hayot qonisan.

Istiqbol mash'ali, ey Gimnaziya!

Ilmu fan maskani sen -

Gimnaziya!

sa'y-harakatlari

turibdi. Jonkuyar inson

M.Saidumarov boshchilik

qilayotgan bilim maskanida

ayni kunlarda T.Aliyev,

F.Jo'rayeva, Z.Ahmedova,

D.Kamolova, D.Abdurahimova,

N.Usmonov,

A.Otajonov,

G'.Hasanov, I.Roziqov,

S.Oxunboyeva,

A.Abdurahimov,


A.Abdullayev kabi

bilimdon ustozlar

o'quvchilarga bilim berishmoqda.

Bugun «Istiqbol» 10 yoshga to'libdi! Gimnaziyaning o'n yillik to'yi bilan o'qituvchi-yu o'quvchilarni chin qalbdan muborakbod etamiz. Bu kun nafaqat quvonchli kun, balki o'tgan o'n yillikka nazar, sarhisob damlari bo'lsa, ajabmas. Parvozing bundanda yuksak bo'lsin, «Istiqbol»!

Sobirjon YOQUBOV,
O'zbekiston Milliy
Universiteti talabasi.



PARVOZING BALAND BO'LSIN "ISTIQBOL!"

ishtirok etib, o'z bilimdonliklarini namoyish qilishdi. Bu haqda Yurtboshimiz viloyat kengashlaridan birida: «Istiqbol» gimnaziya o'quvchilarining «Aks sado»dagi chiqishlarini ko'rib, nihoyatda xursand bo'ldim. Ularning mustaqil fikrlarini, kelajakni yaratish tasavvurlarini, sidqidildan izlanuvchanliklarini qarang. Demak, kelajakda bizning o'rnimizni bosib qoladigan munosib farzandlar yetishib chiqayapti. Ularning har birini birma-bir bag'rimga bosgim keladi, deya bilim maskaniga yuqori baho bergan edi.

O'tgan yili esa gimnaziya bitiruvchisi Dilfuzaxon Sodiqova Zulfiya

Ijodkor o'qituvchi Diloromxon Kamolova qalamiga mansub gimnaziya madhiyasidan shu kabi samimiy satrlarni o'qishimiz mumkin.

O'quvchilarga birinchi sinfdanoq kompyuter va ingliz tili fanlari o'tiladi. Yuqori sinf o'quvchilari esa ixtisoslashtirilgan sinflarga ajratilib o'qitiladi. Hozirda gimnaziyaning bitirgan yoshlar Angliya, AQSH, Yaponiya, Turkiya, Xitoy kabi jahonning rivojlangan davlatlarida va respublikamizning nufuzli oliy o'quv yurtlarida bilim olayapti.

«Istiqbol» gimnaziya erishgan barcha yutuqlar zamirida eng avvalo, ustoz-murabbiylarning murakkab mehnati

SINGLING QANI?

Bir kun singlimning mazasi bo'lmay qoldi. Oyim bog'chada ishlardilar. Singlimga qaraydigan odam yo'qligi uchun oyim ishdan qolmay deb uni ham ishga olib ketdilar. Kunduzi oyim singlimga dori berib uxlatgani yotqizibdilar. Kechasi bilan isitmalab uxlolmagan singlim birpasda doridan so'ng uxlab qolibdi.

Oyim ishdan qaytgach, taom tayyorladilar. Ovqat suzib kelgach, «Singling qani, ovqatga chaqir» dedilar. Uyga kirsam, singlim yo'q. Oyim voqeani eshitgach, hayron qoldilar va birdan «Yugur, kalitni olib, bog'cha xonasini och, singling esimdan chiqib qolibdi», dedilar. Dadam bilan qorovulga xonani ochdirib kirsak, singlim xotirjam krovatda uxlab yotibdi. Uni ko'tarib, uyga olib keldik.

Dilnoza

ISAMUHAMEDOVA,

5- «V» sinf o'quvchisi.

«1» GA O'QIMAYMAN

Bir kuni Durdona bilan ko'p qavatli uyda yashaydigan sinfdoshimiz Ziyodanikiga bordik. Liftida tepaga chiqish, pastga tushish menga juda yoqib qoldi. 9 qavatdan Durdona va Ziyoda meni pastdan chaqirishdi. Liftga kirib tugmachani bosmoqchi edim, bir xola ham liftga chiqdilar. Mendan kimnikiga chiqayotganimni so'radilar. «Ziyodanikiga» dedim. «Birga o'qiysanmi?» dedilar, tushunmay, «Yo'q», «1»

KUNLARDAN BIR KUN

Ushbu mavzuda poytaxtimizdagi 274-maktab o'quvchilari ajoyib voqealarni yozishibdi. O'qisangiz yuzingizga tabassum yuguradi, bolalarcha soddaliklaridan zavqlanasiz.

ga emas, «5» ga o'qiyman debman. Ular ham «Ziyoda bilan birga o'qiysanmi?» deb to'g'ri savol bersalar, men adashmagan bo'lardim.

Muxlisa AKBAROVA,
5- «V» sinf o'quvchisi.

DANAK O'RNIGA PUL

Bir kun oyim, singlim Saodat va men mehmonga ketayotgan edik. Singlim turshak yeb ketayotgan edi. Oyim ko'chada narsa yema, uyat bo'ladi, dedilar. Baribir Saodat turshak yeb ketdi. Oyim sumkani menga, chipta uchun pulni Saodatga berib qo'ygandilar. Avtobusga chiqdik. Saodat birdan «Voy» deb yubordi. Qarasak, u tarshak danagini emas, pulni otvorib, chiptachiga bir hovuch danakni uzatib turgan ekan.


Dilorom JO'RAYEVA,
5- «B» sinf o'quvchisi.

SOVG'A PULIGA OBUNA

Tug'ilgan kunimda buvijonim keldilar. Xursand bo'lib ketdik. Buvijonim «Oqim, senga mos sovg'a topolmadim, o'yinchoq olay desam, o'yinchoqlaring, kiyim olay desam, kiyimlaring ko'p, shu pulni oyingga beray, xohlagan narsangni olib bersin», dedilar. «Voy, o'zimga bera qoling, bugun oyimdan 2345 so'm so'ramoqchi edim», degandim, dadam va oyim menga ranjib qarashdi. «Buvijon,

dadajon, xafa bo'lmanglar, mayli desanglar shu pulga «Tong yulduziga» obuna bo'laman, bir yil buvijon, sizni eslab gazeta o'qiyman» dedim. «Aqlli qizimdan aylanay» deb oyim peshonamdan o'pib, pulni obuna uchun berdilar.

Ziyoda ISROILOVA,
5- «V» sinf o'quvchisi.



tuxumini olib keladi», «kerakmas» dedilar.

Surayyo XOLMATOVA,
5- «B» sinf o'quvchisi.

Mana bolajonlar!
Tengdoshlaringiz hayotidan ajoyib-g'aroyib voqealar bilan tanishdingiz. Sizdan ham shunday qiziqarli voqealar yozilgan maktublarni kutamiz.

Maktublarni GULYUZ saraladi.



IBN SHOFONING OZADALIK HAQIDAGI O'GITLARI

IBN SHIFO - ULASHAR DAVO

Og'iz darvoza,
Uni tut toza.

Tarnoqdagi kir
Yiqitar tog'-qir.

Yurmoqlik iflos
Kasalga asos.

Ozoda yurmoq
Ko'p umr surmoq.

Hatto oddiy gard
Yuqtiradi dard.

Hid chiqsa tishdan
Tish chiqar ishdan.

Yo'talsang darhol
Tutgil dastro'mol.

Tozalik asli
Chindan gul fasli.

Tozalik yovin
Yengadi sovun.

Toza kiyinish
Emas qiyin ish.

Hatto soch tarash
Sog'liqqa qarash.

Mikrob bo'lar quv
Dodin berar suv.

Har qanaqa chang
Jonga solar chang.

Tish yuvish oqshom
Og'izga orom.

Yuqumli kasal
Aldaydi har gal.

Gohida sog'liq
Naslga bog'liq.

*Ibn Sino o'giti:
Tabobat hikmatlarin
Joylab baytlar aro,
Beray maslahat - o'git,
Bo'lgay deb yaxshi davo.
(«Bemorga nasihat»dan)*

Pashshadan kasal
Tarqar har mahal.

Ariq bulg'atish
Kasal qo'zg'atish.

Yashirin kirib -
Kelarkan gripp.

Oyoq kiyiming
Bo'lsin biroz keng.

Pasta, tish cho'tka
Chiqmasin chetga.

Dasturxon yoza -
Sochiq tut toza.

Turfa yaralar
Kirdan yaralar.

Har qanday tutun
Zarardir butun.
Yuqmasdan kasal
O'zingni tort sal.

Bo'lsang hamki fil
Pashshadan qo'rqqil.

Kimki orasta
Bo'lmaydi xasta.

Meva yesang, chay,
Aslo erinmay.

Ozoda hovli
Kasaldan xoli.

.Bo'lmoq pokiza
Shudir mo'jiza.

Dard filni pashsha -
Qilar hamisha.

Yursang musaffo
Kerakmas shifo.

Gripp virusi
Dardning josusi.

Mikrobdan darak
Berar suvarak.

Qayda go'zallik
Bo'lmas kasallik.

Yuvish, yuvunish
O'ta muhim ish.

Xasis va baxil
Kasal ikki xil.

Ozg'inlar ixcham
Bo'ladir ishchan.

DUNYO DARCHASI

Mana bir oydan oshiqroq vaqt bo'ldi-ki, butun dunyodagi tinchlikni istagan davlatlar birlashgan holda, butun olam xalqlari osoyishtaligiga dahshatli xavf solib turgan terrorizm nomli vahshiylikka qarshi astoydil kurashmoqda. Xususan, 11 sentyabr kunidek dahshatli fojiani boshidan kechirgan AQSH va Buyuk Britaniyaning harbiy kuchlari mana 34 kundan beri qo'shnimiz Afg'onistonda joylashib olgan, tinch aholini, bolalar, qariyalar va ayollarni qiynayotgan terrorchilarning harbiy bazalariga asosan havo hujumini, qisman quruqlik qo'shinlari orqali hujumlarni davom ettirib kelyaptilar.

JAFOKASH AFG'ON XALQI TINCHLIK ORZUSIDA YASHAMOQDA

Afg'onistondagi shu kunlardagi vaziyatga kelsak, Tolibonlar harbiy va qurol-aslaha bazalari, yer osti yo'llari, bunkerlarining deyarli to'qson foizi yo'q qilindi.

Hozirgi kunlarda AQSH havo kuchlari asosiy hujumlarni Afg'onistondagi aksilterror, Tolibonlarga qarshi kuchlar - Shimoliy Ittifoq qo'shinlarini Tolibonlar egallab turgan hududlar uchun bo'ladigan janglarda Alyans qo'shinlariga qulay imkoniyat yaratish uchun amalga oshirmoqdalar.

Yaqin kunlarda esa Shimoliy Alyans qo'shinlari Tolibonlarga qarshi ko'p qirrali hujum boshlash uchun yetarli darajada qo'shinga va kuchga ega bo'lib bormoqdalar.

Ammo, ming afsuslar bo'lsinki, Afg'onistonda ayni paytda bo'layotgan keskin vaziyatdan asosan tinch aholi jabr ko'rmoqda. Qochoqlar sifatida Pokiston, Eron, Tojikistonga qochib o'tgan afg'onlarning hayoti ham ayanchli tarzda kechmoqda. Ularga oziq-ovqat, issiq kiyim, dori-darmon yetishmayapti. Ko'plab afg'on bolalari va qariyalari turli xil kasalliklardan, sovuqdan va ochlikdan azob chekkan holda hayotlari xavf ostida qolmoqda.

Afg'onistonda 20 yildan ortiq vaqt davomida dahshatli urushlar davom etib kelmoqda. Afsuski, urushdan asosan tinch aholi jabr chekib, minglab begunoh insonlar qurbon bo'lmoqdalar.

Millionlab afg'onlar o'zga yurtlarda qochoq sifatida yashab kelmoqdalar. Ularning ham boshqalar kabi o'z ona yurtlarida yashagilari keladi, vatanlarida faqat tinchlik bo'lishini, uning rivojlanishini, afg'on bolalarining dunyo bolalari kabi maktablarda bilim olib, ulug' inson bo'lishlarini, kelajakda baxtli yashashlarini juda xohlaydilar.

Buning uchun esa

ADOLATLI, TINCHLIKPARVAR HUKUMAT ZARUR..

Afg'onistondagi yovuz terrorchilar butkul yo'q qilinib, u yerdagi turli millat vakillarini birlashtira oladigan, tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni o'rnatadigan, agar xalq xohlasa demokratik davlat qurib, Afg'onistondagi barcha millatlarning tinch va farovon hayotini kafolatlay oladigan adolatli rahbar hokimiyat tepasiga kelishi, faqat xalq tinchligi va manfaatlari yo'lida kurashadigan hukumat barpo etish kerak.

Hozirda jahon hamjamiyati Afg'onistonning sobiq shohi Muhammad Zohir Shohni ana shunday ishga qodir, adolatli rahbar deb hisoblamoqda.

Ma'lumki, Afg'onistonda pushtunlar, tojiklar, xozariylar, o'zbeklar kabi ko'plab yirik millat vakillari va boshqa turli millatlar yashaydilar.

Xalqaro hamjamiyat va Zohir Shohning tarafdorlari kelajakda Afg'onistondagi turli millatlarning teng huquqli bo'lishini, baxtli va tinch yashashini, mamlakatni barqaror qilib tura oladigan hukumatni barpo etish yo'llarini izlamoqdalar.

O'zbekiston hukumati va xalqi ham qo'shnimiz bo'lgan jafokash afg'on xalqini baxtli yashashini, u yerda tinchlik o'rnatilishini juda xohlaydi va bunday maqsad yo'lida afg'on xalqiga beg'araz, sidqidildan yordam berishga tayyor.

ShohruhbeK KARIMBEK tayyorladi.

VATAN

Boburning yuragi buyuk armoni,
Cho'iponning dilida abadiy kuyi,
Parvoz etmoqdadir Usmonning ruhi,
Qalbinning maskani, yuragim Vatan!

Navoiy bobomning bitgan g'azali,
Rabg'uziy hikmati, aytgan masali,
Mashrab chamanlarin ichra go'zali,
Qalbinning maskani, yuragim Vatan.

Bog'boning cho'lni qil chaman deb ketgan,
Alpomish elga bo'l posbon deb ketgan,
Qodiriy so'nggi bor Vatan deb ketgan,
Qalbinning maskani yuragim Vatan!

QALAMIM


Sen o'zingsan mening yolg'iz sirdoshim,
Baxtim, bahorim ham ko'zdagi yoshim.
Shamshiringdan o'ta olsa bu boshim,
Yuragimning tarjimoni - Qalamim!

She'riyatga bo'lganman - men bir banda,
Tanho qurolimsan, jonimsan tanda.
Asirangman, qilmayman seni kanda,
Yuragimning tarjimoni - Qalamim!

Qo'limga olmasam seni bir bora,
Tuyg'ularim faryod chekar, chekar oh-nola.
Qalb dardini senga aytar Sitora,
Yuragimning tarjimoni - Qalamim!

*Sitora TOJIDDINOVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi 45-
umumta'lim maktabining
7- «B» sinf o'quvchisi.*

BIZNING TO'GARAK



ONALAR - HAYOT GULI

Tarixga gar tashlasam nazar,
Uning dog'i dilga iz solar.
Lek onalar jasoratidan,
Butun olam haytarda qolar.
Onalar beshigin tebratgan zamon,
Farishtalar sajdaga bosh qo'yar emish.
Farzandiga alla aytgani hamon,
Orzu-armonlari jo'sh urar emish.

*O'lmasbek XO'JAYEV,
Qoraqalpog'iston respublikasi,
Amudaryo tumani,
Mang'it shahridagi 36 - maktabning
8 - sinf o'quvchisi.*



OTAJON

Mehnat qilib tunu kun,
Bizning g'amimiz yeydi.
Ul-bul keltirsa agar,
Avvalo bolam deydi.
Mehnat qilib tolsa ham,
Horidim, demas aslo.
Umidlarini oqlab,
Bo'laylik farzand raso.
Rahmat sizga otajon,
Baxtimizga sog' bo'ling.
Kamolimizni ko'rib,
Biz suyangan tog' bo'ling.

*Odiljon QOSIMOV,
Toshkent shahar,
Akmal Ikromov tumani.*




OLTIN KUZ

Kirib keldi oltin kuz,
Xuddi go'zal bahoday.
Zarxal bo'lib ochdi yuz,
Iliq tonggi nahoday.

Bog'larimda g'arq pishdi,
Olma-yu anor, uzum.
Ularga boqqan mahal,
Quvonchdan quvvar ko'zim.

Keling do'stlar, marhabo,
Bog'im juda chiroylik.
Totli mevalar bisyor,
Birga baham ko'raylik.

*Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi
169 - maktabning
5 - sinf o'quvchisi.*



MAKTAB HANGOMALARI

O'qituvchi o'quvchi qizdan so'radi:
- Shunday kalta ko'ylak kiyib yurganingni onang ko'rsa nima deydi?
- Urushadilar albatta.
- Nima uchun?
- Ko'ylaklarini beruxsat kiyganim uchun.

x x x

O'qituvchi o'quvchiga qarab:
- Doskaga chiq! - dedi.
- Chiqolmayman, u meni ko'tarolmaydi, - javob berdi o'quvchi.

*Feruza OBIDOVA,
Toshkent viloyati,
Yangiyo'l tumanidagi
2 - o'rta maktabning
9 - sinf o'quvchisi.*

Bir bor ekan,
Bir qo'q ekan...

Qadimda bir ajoyib mamlakat bo'lib, uning podshosi boshqa yurtlarning podsholariga h e c h a m o'xshamaydigan, odil, saxiy va mehnatkash inson ekan. Yurti qudratli, badavlat, obod, xalqi axil, farovon yashar ekan. Bir kam dunyo deganlaridek, podsho befarzand ekan. Tunu kun bir etak bola va nabiralar ko'rishni orzularkan. Lekin bu baxtdan benasib ekan...

Bir kuni yolg'izlikdan zerikib, o'zga yurtlarga sayohatga o'tlanibdi. Oradan bir yarim yil o'tgach yurtiga qaytib kelibdi. Xalqi unga peshvoz chiqib kutib olishibdi. Saroyda esa xotini ikki qo'lida ikki chaqaloq bilan qarshi olibdi. Podsho hayron bo'lib, xotinini so'roqqa tutibdi.

- Bu egizaklar sizning farzandlaringiz, podshoxi olam, - debdi xotini. Podshoning sevinchi olamga sig'may ketibdi. Qiziga Izabella, o'g'liga esa Xendri deb ism qo'yibdi.

Ko'z ochib yumguncha bolalar 10 yoshga to'lishibdi. Xendri xuddi otasidek mehnatsevar bo'lib kamol topibdi. Izabella esa aksincha, ishyoqmas, dangasa qiz bo'libdi.

O'qishni xohlamas, o'rtoqlari bilan ham chiqisha olmas ekan. Podsho unga ish o'rgatmoqchi bo'lib:
- Qizalog'im, o'rmonga borib qulupnay terib kelgin, - debdi.
- Xizmatkorlar terib kelishsin, - debdi qizi erinchoqlik bilan.

Shunda chol qizni o'z uyiga olib ketibdi, ovqat beribdi. Keyin, qizim, kosangni yuvib qo'y, debdi.
- Mening kimligimni bilasizmi o'zi? - debdi Izabella zarda aralash. - Men malikaman, sizga xizmatkor emasman...
Ertasi kuni chol qizga ovqat bermabdi. Ovqat so'ragan ekan:
- Men senga xizmatkor emasman, o'zing pishirib olaver, - debdi chol.

Izabella qarasa, ish chatoq. O'zi uchun harakat qilmasa, och qoladi. Ertasi kuni barvaqt turib, qo'ldan kelgancha ovqat pishiribdi. Tatib ko'rsa, binoyidek taom bo'libdi. Kingadir maqtangisi kelib, cholni uyg'otibdi. Qizning qilgan ishidan mamnun bo'lgan chol uni uyiga kuzatib qo'yibdi. Izabella o'zini

onasining bag'riga otibdi va boshidan kechirgan voqealarni so'zlab beribdi. Otasini qayerdaligini so'rasa, uch kunlik safarga ketganini aytishibdi...

Aslida o'rmonda qizga uchragan chol podshoning o'zi ekan. U qiyofasini o'zgartirib olib, shunday yo'l bilan qizini tarbiyalabdi.

*Durdona AVAZOVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumanidagi
85 - maktab o'quvchisi.*

QUDRATLI SHOX



O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.
«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 58.519 nusxada ofset usulida bosildi.
Korxonalar manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.
Buyurtma № T-3092
Gazetani Muhabbat MAHSUDOVA sahifaladi.
Navbatchi: Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08